

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovatsion usullari (kompyuter grafikasi asosida)	14
Tolib SOBIROV, Qavmiddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchilik obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati	18
Arif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda milliy qadriyat va an'analarning o'rni	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janrda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsional ta'siri	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor	32
Гульнора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин	34
Viloyat TUXSANOVA. Kashtachilik san'ati	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'rni	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жителей Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'rni	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish	97
Mohinur JALOLOVA. Diniy binolarda bezak san'ati	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi	103
Jo'rabek YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqa muammo va yechimlari	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения	108
Jo'rabek YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi	112
Maxfuza KAMBAROVA. Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari	117
Jo'rabek YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqloq g'oyalari ruhida tarbiyalash	122

“MANZARA JANRIDA IJOD QILGAN RASSOMLAR ASARIDAN NUSXA KO‘CHIRISH” MODULINI O‘QITISHDA INNOVATSION TA’LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Maqolada “Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish” fanining “Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko‘chirish” modulini o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati hamda fanni o‘rganish yuzasidan darajali testlar tuzish, amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitishning nazariy metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo‘li, shakli, mazmuni va metodlarini takomillashtirish kabi eng dolzarb muammolar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, Keys-stadi, tasviriy san’at, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, ijodkor.

В статье рассматривается важность использования инновационных образовательных технологий в обучении модуля “Копирование с произведений художников в жанре пейзаж” по предмету “Технология и копирование изобразительного искусства” и разработка уровневых тестов по изучению науки, практические занятия Наиболее актуальные вопросы, такие как разработка теоретико-методических основ обучения студентов и совершенствование новых научно обоснованных способов, форм, содержания и методов.

Ключевые слова: инновация, кейс, изобразительное искусство, современные образовательные технологии, творческий подход.

The article discusses the importance of using innovative educational technologies in teaching the module “Copying from the works of artists in the genre of landscape” on the subject “Technology and copying of fine arts” and the development of level tests on the study of science, practical training The most pressing issues, such as the development of theoretical and methodological bases of teaching students and the improvement of a new scientifically based way, form, content and methods.

Key words: innovation, case study, fine arts, modern educational technologies, creative

Kirish. Respublikamizda amalga oshirilayotgan katta o‘zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olishda o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Keyingi vaqtda hamma sohalarida bo‘lgani kabi, oliy ta’lim tizimida ham ko‘pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogika universiteti va institutlari, san’at fakultetlarida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha yangi o‘quv rejalari, dasturlari tuzilmoqda.

Yoshlarni badiiy jihatdan voyaga yetkazishda tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish fanini yaxshiroq o‘rganish maqsadida uni boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qilindi. Chunki bu fan fizika, kimyo, psixologiya, fiziologiya va estetika fanlari bilan chambarchas bog‘langandir. Hozirgi paytda boshqa sohalarida bo‘lgani kabi oliy ta’lim tizimida ham ko‘pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tasviriy san’at va muhandislik grafikasini o‘qitish bo‘limlarida yosh pedagog-rassomlarni tayyorlash bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari, dasturlar, yangi o‘quv rejalari tuzilmoqda, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va metodik tavsiyalar yaratilmoqda. Respublika oliy-o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarida yoshlarga milliy san’at namunalarini o‘qitishning ilmiy asoslangan yangi metodlari ishlab chiqilmoqda va yoshlarni badiiy, estetik jihatdan tarbiyalab voyaga yetkazish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish fani san’at fakultetlarida o‘qitiladigan barcha mutaxassis fanlarning asosi hisoblanadi va ular orasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi. Texnologiya borasida yetarli bilim va malakalarni egallamay turib talaba kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o‘zlashtira olmaydi.

Hozirgi kunda pedagogika universitetlari san’at fakultetlarida mutaxassislik fanlari tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish fanlari, mashg‘ulotlarini o‘qitishning nazariy metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo‘li, shakli, mazmuni, hamda metodlarini takomillashtirish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

tasviriy san’at texnologiyasi va nusxa ko‘chirish fani mashg‘ulotlarini o‘qitishning hozirgi holatini aniqlash va uning keyingi mo‘ljallangan istiqbolli yo‘llarini ishlab chiqish;

O‘zbekiston tasviriy san’ati xalq rassomlari ijodi, xalq ustalari, qadimiy haykaltaroshlik san’ati materiallarini yoshlarga bilim va estetik tarbiya berish tasviriy san’at asarlarini o‘qiy olishga o‘rgatish, tasviriy san’at texnologiyasi fanini ilmiy uslubiy jihatdan tahlil etish.

Har qaysi ijodkor o'z asarlarida o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi. Shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo'yicha zarur nazariy va o'quv-uslubiy bazani shakllantirish bugungi kun talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish va bu muammolarni yechish imkonini berishi shubhasizdir.

Pedagogikaning asosiy tamoyili talablariga muvofiq yuksak axloqiy va ma'naviy madaniyatga, professional kompyuter savodxonligiga, rivojlangan bilimi, kommunikativligi, tashkiliy va adaptiv qobiliyatlarga ega shaxsni rivojlanishida kompleks yondashuvni talab qilmoqda. Shuning uchun bir qator muammolarni hal etish yo'lida modulli o'qitish texnologiyasini ta'lim jarayoniga bog'lash ustuvor maqsad bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda har bir davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rni uning intellektual salohiyati hamda kadrlarni tayyorlash sifati bilan o'lchanadi. Modulli ta'limning mohiyati shundaki, o'qitish tarkibi muxtor tuzulmaviy, tashkiliy-uslubiy bloklar – modullarga bo'linib, ularning tarkibi va hajmiga ko'ra didaktik maqsadlar, talabalarining ixtisosligi va saviyasi darajalari, ta'lim olayotganlarning o'quv kursi bo'yicha yakka tartibdagi harakat yo'lini erkin tanlash va intilishlariga qarab farq qilishi mumkin.

Fanlar uyg'unligi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan muayyan egiluvchanlik va erkinlik darajasini takomillashtirishda ta'lim olayotganlar uchun aniq va talab qilinayotgan o'quv materiallarining butligini maxsus didaktik va professional maqsadlar, muayyan darajadagi talablar orqali ko'rsatib beradi. O'qitishning muhim elementi sifatida, odatda bilimlarni reyting tizimida baholash bo'lib, har bir modulni o'zlashtirish natijalariga binoan tahsil oluvchilarning olgan bilim va amaliy ko'nikmalari asosida balli baho olishlari tushuniladi.

“Manzara janrida ijod qilgan rassomlar ijodidan nusxa ko'chirish” modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rgatish orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda mahalliy manbalardan foydalanishni keng yo'lga qo'yish, yoshlarni yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan:

- talabalarga “Manzara janrida ijod qilgan rassomlar ijodidan nusxa ko'chirish” modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalar to'g'risida ma'lumot berish;
- talabalarni innovatsion ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlaridan xabardor qilish;
- talabalarni ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish;
- talabalarda ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantirish.

Mazkur fanda rangshunoslik, tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishning maqsad va vazifalari, fizika, kimyoviy, fiziologik va estetika fanlari hamda, tasvirlash texnologiyasi akvarel, moybo'yoq, guash, tempera, tush, sangina, pastel va boshqa materiallar bilan ishlash texnologiyasi o'rin olgan.

“Manzara janrida ijod qilgan rassomlar ijodidan nusxa ko'chirish” modulini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish quyidagilarni kafolatlaydi:

1. Talabalar innovatsion ta'lim texnologiyalaridan xabardor bo'ladi.
2. Talabalar ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni o'rganadi.
3. Talabalarda ta'lim jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

Hozirgi kunda tasviriy san'at sohasi ijodkordan juda katta bilim va mahoratni talab qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki hozirgi davr tasviriy san'atining juda ko'p yo'nalishlari mavjud. Shu bilan birga, mazkur modul ham tasviriy san'atning asosiy poydevori bo'lgan qalamtasvir haqida bo'lib, bu qo'llanmada qalamtasvir turlari, uni o'rganish yo'llari, qalamtasvirda perspektivaning qo'llanilishi, komponovka (qog'ozga joylash), proporsiya (o'lchamlar), konstruktiv qurish, tusda ishlash, shtrixlar bilan ishlash, qalamtasvir texnologiyalari, qog'oz, qalam, ko'mir, sous, sangina, retushlar bilan ishlash, detallar ustida ishlash kabi uslublar haqida umumiy tushunchalar berib boradi. Keng ko'lamli islohotlarning muhim bo'g'ini – innovatsiyalar ham bugun har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham o'zining afzalliklarini namoyish qilmoqda. Hozirgi vaqtda “innovatsiya” tushunchasi juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, innovatsion yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli);
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya xususida fikr yuritayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsa innovatsiya degan tushuncha shakllanadi.

Muhokamalar va natijalar. "Keys-stadi" (ingliz tilida "case" – chemodan, metod, "studi" – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi o'quvchi(talaba)larda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o'quvchi (talaba)larni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

Samarali "Keys-stadi" quyidagi talablarga javob bera olishi zarur:

- maqsad aniq ifoda etilishi;
- muayyan darajada murakkab bo'lishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritish;
- tezda samarasizga chiqmasligi;
- milliy xususiyatlarni o'zida namoyon eta olishi;
- biznes, ta'lim yoki boshqa sohalarga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;
- bugungi kunda dolzarb bo'lishi;
- talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha yechim (qaror)ga ega bo'lishi.

"Manzara janrida ijod qilgan rassomlar ijodidan nusxa ko'chirish" moduli bo'yicha amaliy topshiriqlar va darajali testlar.

"Blits-so'rov" asosida talabalarining "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar ijodidan nusxa ko'chirish" moduliga oid nazariy bilimlarga egaliklarini aniqlash. Masalan:

1. Manzara janri - ...
2. Manzaranavis rassomlar - ...
3. Fazoviy perspektiva - ...
4. Ufq chizig'i - ...
5. Ko'rish maydoni - ...
6. Perspektiva qonuni - ...
7. Surat tekisligi - ...

"Yettinchisi ortiqcha" strategiyasi.

Keltirilgan tushunchalar orasidan oid bo'lmagan tushunchani aniqlash:

Tushunchalar:

1. Manzara
2. Sodda geometrik shakllar
3. Fazoviy perspektiva
4. Ufq chizig'i
5. Ko'rish maydoni
6. Perspektiva qonuni
7. Rangning ahamiyati

"Manzara janrida ijod qilgan rassomlar ijodidan nusxa ko'chirish" mavzusiga oid chaynordni yeching.

1. Janrlardan biri...
2. Bo‘yoq turlaridan biri...
3. Manzaranavis rus rassomi...
4. Jonsiz predmetlar uyushmasi...
5. Qog‘oz turlaridan biri...


m a n z a r a k v a r e l e v i t a n a t u r m o r t o r s h o n

1. Tasviriyy san'at janrlarini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.
1) portret; 2) natyurmort; 3) manzara; 4) marina; 5) botal; 6) tarixiy; 7) animalistik.




1-C	2-G	3-B	4-D	5-F	6-E	7-A
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----


1)akvarel bo'yog'ida; 2) moybo'yoqda; 3) ko'mirqalamda; 4) oddiy qora qalamda 5) pastelda;



3. Portret ishlash bosqichi ketma-ketligini mos raqamlarini yozing.



	Portret ishlash bosqichlari	Raqamlar
	Umumlashtirish	4
	Rangda ishlov berishda aniqlashtirish	5
	Joylashtirish	1
	Shakl nisbatlarini topish	2
	Yakunlash	6
	Soya-yorug‘ rangini topish	3



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet
tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022-yil maxsus son 2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan. OBUNA INDEKSI: 3070	Buxoro davlat universiteti nashri Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 08.06.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 13.06.2022 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 314 Bahosi kelishilgan narxda. “Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.
---	---	--